

XORIY TAJRIBASI ASOSIDA JINOYAT PROTSESSIDA SUD MUHOKAMASI OSHKORALIGI PRINSIPINI RO‘YOBGA CHIQRARISH MEXANIZMI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Adizov Alibek Oybek o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi

Magistratura bosqichi talabasi

E-mail: alibekadizovofficial@gmail.com

ABSTRACT

Mazkur ishda jinoyat ishlarini sudda oshkora tartibda ko‘rishning zamonaviy ilg‘or tajribalari o‘rganildi, O‘zbekiston huquqi tizimi solishtirilib, manfaatli takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: oshkoralik, jinoyat protsessi, odil sudlov, jamoatchilik nazorati, sud muhokamasi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, yopiq sud tartibi

Muhtaram Prezidentimiz “So‘nggi yillarda sud-huquq tizimida adolat o‘rnatish bo‘yicha ko‘p ish qildik. Shu bilan birga, odil sudlovni ta‘minlash bo‘yicha hali qo‘limiz yetib bormagan masalalar bor. Afsuski, hozir ham tergov sifati pastligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlari ijro etilmay qolayotgani bilan bog‘liq holatlar uchramoqda.”¹ deb ta‘kidlab o‘tkanlar. Darhaqiqat, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida sud-huquq tizimida sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga ko‘rinmoqda. Sud muhokamasining oshkoraligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, keng imkoniyatlar hozirlandi. Xususan, jinoyat ishi muhokamasining oshkora tartibda ko‘rib chiqish tartib-taomillar takomillashtirilib, ilg‘or xorij tajribasidan foylanilmoqda. Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun sudlar zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlarini, tegishli jamoat birlashmalarini va jamoalarni bo‘lajak protsesslar to‘g‘risida xabardor qilishi, shuningdek protsesslarni bevosita korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida hamda ta‘lim muassasalarida o‘tkazishi mumkinligi qonun hujjatlarida ask etmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 20.12.2022-yildagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi.(elektron manba: <https://president.uz/oz/lists/view/5774>)

Ammo, jinoyat ishini oshkora tartibda ko‘rib chiqilishida bir qancha kamchilik va muammolar yuzaga kelib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rish zarur. Xususan Prezidentimiz “Odil sudlov xalqning ko‘z o‘ngida, ochik-oshkora amalga oshirilib, adolatli qaror topishi lozim”¹, deb bejiz aytmagan. Mana shunday tartibda odil sudlov faoliyatini oshkora, xalqning ko‘z o‘ngida, adolatli ravishda ko‘rib chiqish uchun albatta, xorij tajribasiga muhtojmiz.

Jinoyat protsessida sud muhokamasining oshkoraligi jinoyat protsessual kodeksi 19-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra barcha sudlarda jinoyat ishlari oshkora tartibda ko‘riladi, sudning tashabbusi yoxud ishtirokchilarning iltimosnomasiga binoan audio va videoyozuvdan foydalangan holda o‘tkazilishi mumkin. Sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun sudlar zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlarini, tegishli jamoat birlashmalarini va jamoalarni bo‘lajak protsesslar to‘g‘risida xabardor qilishi, shuningdek protsesslarni bevosita korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida hamda ta‘lim muassasalarida o‘tkazishi mumkin. Sudlarda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipini cheklaydigan qo‘shimcha talablarni joriy etish taqiqlanadi.²

Sud muhokamasining oshkoraligi prinsipini ta‘minlash maqsadida sudlar faoliyatiga doir axborotni olish huquqi ta‘minlandi, ommaviy axborot vositalari vakillariga sud majlisida qatnashish imkoniyati berildi, jinoyat protsessida raislik qiluvchining taraflar fikrini eshitgandan so‘ng beradigan ruxsati bilan muhokamani audio-video yozuvga olish, ommaviy axborot vositalarida translatsiya qilish tartibi yo‘lga qo‘yildi.³

Qonunda nazarda tutilgan hollarda ish yopiq sud majlisida ko‘rib chiqilib, bu to‘g‘risida ajrim chiqariladi.

Yopiq sud majlisida ko‘riladigan ishlarga:

- davlat sirlari bo‘g‘liq jinoyat ishlari;
- jinsiy jinoyat to‘g‘risidagi ishlar kiradi.

Bundan tashqari quyidagi hollarda ham ishni yopiq sud majlisida muhokama qilishga yo‘l qo‘yiladi.

- o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlarda;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 30.06.2020-yildagi “Odil sudlovni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishga ba‘g‘ishlangan nutqi”. elektron manba:(<https://president.uz/oz/lists/view/3684>)

² Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. –61-b

³ Oliy sud plenumining “Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 21.04.2020-yilda 04-son qarori.

- fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasida har bir inson huquq va burchlarini belgilash va qo'yilgan jinoiy aybning, mustaqil va xolis sud tomonidan qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning ishi oshkora va odillik talablariga rioya qilingan holda ko'rib chiqilishi huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan.

Anglo-sakson huquqi ishlovchi davlatlarda sud jarayonlari dastlabki tergov, surishtiruv protsessidan farqli o'laroq ochiq bo'lishi kerak, bu sudlanuvchining himoyasi uchun zarurligi ta'kidlanadi.¹ AQSHda ham sud jarayonlariga qatnashishga matbuot xodimlariga ruxsat berilgan, ammo aksariyat mamlakatlarida sud jarayonlarini OAV tomonidan video-tasvirga olishga ruxsat berilmaydi. Bu odil sudlov muhokamasiga salbiy o'tkazishi mumkinligi, sudlanuvchining hayotiga xavf yetishi mumkinligi bilan izohlanadi. Jinoyat sodir etishda ayblangan har bir shaxs AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan oltinchi tuzatish bo'yicha ommaviy sud muhokamasiga haqli. Ya'ni uning ishi sudda oshkora tartibda ko'rib chiqilmaguncha aybsiz hisoblanadi. AQSH Oliy sudi sudyasi A.Brandeis sud jarayoni jamoatchilik nazarida muhokama qilinsa, odil sudlov tizimida adolatli qaror chiqarishga ko'maklashadi deb ta'kidlagan.² Guvohlar nafaqat sud, balki ularning jamiyat a'zolari huzurida bo'lganlarida yolg'on guvohlik berishlari ehtimoli susayadi. Keng jamoatchilik jinoiy sud tizimining qanday ishlashiga guvoh bo'lishi manfaatli hisoblanadi, chunki mansabdor shaxslar, xususan, sudyalalar va prokurorlar jamoatchilik kuzatayotganini bilsalar, o'z vazifalarini vijdonan bajarishga kirishishlari mumkin.³

Sudya sud jarayonini jamoatchilikka yetishi mumkin bo'lgan zarar xavfini aniqlaganida, sud ishlarini yopiq ko'rish to'g'risida sud hujjati chiqarishi mumkin. Bunda ommaviy axborot vositalari xodimlarini sud muhokamasidan chiqarish huquqini beradi. Biroq, sudlanuvchining odil sudlov huquqini himoya qiladigan va jamoat xavfsizligini etarli darajada himoya qiladigan bo'lsa, sud zalini yopish uchun kamroq cheklovli alternatalarni ko'rib chiqishi kerak. Demak, ommaviy axborot vositalarining sudda qatnashishiga yo'l qo'ymaslik yoki jamoatchilikning sud qismlariga kirishini cheklash ham bo'lishi mumkin. Xususan AQSHda Agar sud uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq ishni ko'rib chiqayotgan bo'lsa, xavfsizlik masalasida guvohlar va sud xodimlarini himoya qilish uchun sud zalini yopishni talab

¹ Trial procedure criminal courts. Article. (<https://www.britannica.com/topic/procedural-law/Trial-procedure>)

² Right to a public trial. Article. (<https://www.nolo.com/legal-encyclopedia/criminal-trial-publicity.html>)

³ The right to a public trial in a criminal law case. Article. (<https://www.justia.com/criminal/procedure/right-to-a-public-trial/>)

qilishi mumkin. Ba’zida sudya zo‘rlash qurboni, jabrlanuvchi bola yoki yashirin politsiya xodimining shaxsini himoya qilish uchun sud zalini yopishi mumkin. Agar ishda keltirilgan dalillarda jinsiy aloqa yoxud zo‘ravonlik materiallari mavjud bo‘lsa, ushbu materiallarni jamoatchilikdan holi ravishda yopiq sud majlisida ko‘rishi lozim. Ma’lumotni oshkor qilish jabrlanuvchiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hollarda ham raislik qiluvchining tashabbusi yoxud ruxsati ish yopiq sud majlisida ko‘rilishi mumkin.¹

Voyaga etmaganlar jinoyatlari bilan bog‘liq sud muhokamasi ham yopiq sud majlisida o‘tkaziladi. Bu voyaga etmagan sudlanuvchi uchun kelajakdagi salbiy oqibatlarni oldini olish uchun qaratilgan deb izohlanadi. Ba’zi hollarda ularning nomlari sud hujjatlaridan ham olib tashlanadi. Agar voyaga etmagan sudlanuvchi kattalar sifatida sud qilinayotgan bo‘lsa, ya’ni emansipyatsiya holatida bo‘lsalar ular ushbu himoya huquqiga ega emaslar. Jinoyat ishlarida matbuotning diqqat-e’tibori ba’zan katta foyda keltiradi. Oshkoralik noma’lum guvohlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin, shunda ularning ma’lumotlari ko‘rib chiqilishi va faktlar to‘g‘ri aniqlanishi mumkin.² Bu, shuningdek, jinoiy jarayonni boshqarayotganlar o‘z qarorlarini jamoatchilik nazoratiga o‘tkazish orqali adolatli harakat qilishlarini ta’minlashga ko‘mak beradi. Ommaviy axborot vositalarining e’tibori, shuningdek, jinoiy jarayondagi zarur o‘zgarishlarni rag‘batlantirishi yoki muqobil ravishda, jamoatchilik tizim tegishli ravishda ishlaydi degan xulosaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shunga qaramay, matbuotni yoritish ba’zan jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Oshkoralik ba’zi sudyalari yoki prokurorlarni, xususan qayta saylanishga duch kelishi kerak bo‘lganlarni adolatdan ko‘ra siyosiy maqsadga muvofiq harakat qilishlariga olib kelishi mumkin.³

Jamoatchilikning erkin matbuotga bo‘lgan huquqini va sudlanuvchining xolis odil sudlovga bo‘lgan huquqini ta’minlash muammosi uzoq vaqtdan beri mavjud. Masalan, 1807-yili Aaron Burrning xiyonati uchun sud jarayoni, AQSH Oliy sudi sudyasi jon Marshall tomonidan matbuot hisoblari bilan tarafkashlik qilgan degan mudofaa da’volari bilan kurashishga majbur bo‘ldi. 1994 yilda sobiq rafiqasi va uning do‘stlaridan birining o‘ldirilishi uchun O. J. Simpsonni ta’qib qilish matbuotda yoritilishi mumkin bo‘lgan muammoni namoyish etdi. Simpson ishida oshkoralik, xususan televizion ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritishda Simpsonga zarar

¹ Criminal trial publicity. article (From <https://www.nolo.com/legal-encyclopedia/criminal-trial-publicity>.html)

² United States criminal procedure. article. (https://en.wikipedia.org/wiki/United_States_criminal_procedure)

³ Publicity in Criminal Cases. article. (<https://law.jrank.org/pages/1890/Publicity-in-Criminal-Cases-Overcoming-prejudicial-publicity.html>)

etkazadigan ko‘plab ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular sudda dalil sifatida tan olinmagan.¹

Ommaviy axborot vositalarining o‘zi ta’minlagan ma’lumotlarni oshkor qilishiga to‘sqinlik qilganligi sababli, sudlar ba’zida advokatlar va jinoyat ishining boshqa ishtirokchilariga ommaviy axborot vositalarining manbalarini kesishga harakat qilishadi. Sudlar, shuningdek, cheklangan holatlarda sud ishlarini yopishni buyurishi mumkin, ammo birinchi tuzatish odatda matbuotning sudlarga kirish huquqini himoya qiladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida sud ishlarida oshkoralikni ta’minlash va odil sudlov faoliyatiga asossiz aralashuvni oldini olish borasida bir vaqtda yo‘lga qo‘yadigan tizim ishlab chiqilib, erkin matbuotga bo‘lgan huquq e’tirof etilib, ishni yopiq sud majlisida o‘tkazish mumkin bo‘lgan hollar belgilandi.²

Virjiniya sudlari hali ham jamoatchilik va axborot vositalarini ta’qiqlamoqda. Xususan, Jinoyat ishlari jamoatchilik, shu jumladan ommaviy axborot vositalari a’zolari uchun ochiq bo‘lishi kerak, agar bu ayblanuvchining konstitutsiyaviy huquqlarini buzishi to‘g‘risida aniq va ishonchli dalillar bo‘lmasa deb hisoblashadi.³

Germaniyada jinoyat ishlarini ochiq sud majlisida ko‘rib chiqishning ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, u sudga ishni odilona, jamoatning ko‘z o‘ngida hal qilish vazifasini zimmasiga yuklaydi. Odil sudlov jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi, sud va jamoatchilik o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi. Bu Sud tizimining samaralish ishlashi nuqtai nazaridan ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Sud majlisida ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi. Protsessda oshkoralik prinsipining mazmuni quyidagi elementlardan iborat:

- 1) Sud majlisidan xabardor bo‘lish huquqi;
- 2) Jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishish huquqi;
- 3) Sud majlisida hozir bo‘lish huquqi;
- 4) Sud hujjatlarini ommaviy e’lon qilish huquqi,
- 5) Sudning protsessual ma’lumotlarning taqdim etilishi hamda olinishini ta’minlash majburiyati;

Rossiya federatsiyasining sud tizimi to‘g‘risida’gi qonunning 9-moddasida sudlar faoliyatida oshkoralik prinsipi mustahkamlangan bo‘lib, barcha sudlarda

¹ Publicity in criminal cases. Article.(<https://law.jrank.org/pages/1894/Publicity-in-Criminal-Cases.html>)

² Conclusion of publicity in criminal cases (<https://law.jrank.org/pages/1892/Publicity-in-Criminal-Cases-Conclusion.html>)

³ University of Pennsylvania law review. Problems posed by publicity to crime and criminal proceedings. Pennsylvania :.2007

ishlarni ko‘rib chiqish ochiq ekanligi qayd etilgan. Federal qonunlarda nazarda tutilgan hollarda yopiq sud majlisida o‘tkazilishi belgilangan.

Rossiya federatsiyasi jinoyat protsessual kodeksining 241-moddasida jinoyat ishlarini yopiq tartibda ko‘rib chiqish uchun belgilangan hollar nazarda tutilgan bo‘lib, bular:

1) Jinoiy ishning sudda ko‘rib chiqilishi federal qonun bilan himoyalangan davlat yoki boshqa sirlarning oshkor qilinishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollar;

2) O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari;

3) Shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar va boshqa jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish jinoyat protsessi ishtirokchilari hayotining yaqin tomonlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yoki ularning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma‘lumotlarni oshkor qilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollar;

4) Sud muhokamasi ishtirokchilari, ularning yaqin qarindoshlari, qarindoshlari yoki yaqinlari xavfsizligini ta‘minlash maqsadida.

Rossiya jinoyat protsessual huquqi tizimida yozishmalar, telefon va boshqa muzokaralarni yozib olish, telegraf, pochta va boshqa shaxslarning xabarlarini faqat ularning roziligi bilan ochiq sud majlisida e‘lon qilinishi mumkin. Aks holda, ushbu materiallar yopiq sud majlisida e‘lon qilinadi va tekshiriladi. Ushbu talablar fotosurat materiallari, audio va (yoki) video yozuvlar, shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan filmlarni o‘rganishda ham qo‘llaniladi. Ochiq sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslar audio yozuv va yozma yozuvlarni yuritish huquqiga ega.¹ Suratga olish, videoyozuv va (yoki) kino suratga olish, shuningdek ochiq sud majlisini radio, televideniye yoki Internet axborot-telekommunikatsiya tarmog‘ida efirga uzatishga sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan ruxsat beriladi. Sudgacha ish yuritish bosqichida ochiq sud majlisini radio, televideniye yoki internet axborot-telekommunikatsiya tarmog‘ida efirga uzatishga yo‘l qo‘yilmaydi.²

Qozog‘iston jinoyat protsessual huquqi ham Rossiya va O‘zbekiston jinoyat protsessual huquq tizimidagi normalarni takrorlaydi, umumiy tartibda ishlar oshkora

¹ УПК. РФ. статья 241. главность.

https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/1c70c320a6fcfa2fbadef95fc3294b632f4_69c0/

² Гласность в уголовном процессе.

<https://www.kartalyraion.ru/about/info/prokuror/10008/#:~:text=Гласность%20судебного%20разбирательства%20-%20конституционный,освещения%20хода%20и%20результатов%20процесса>

tartibda ko‘rib, davlat siri, jinsiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar hamda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari bilan bog‘liq ishlar yopiq sud majlisida ko‘rib chiqiladi.¹

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual huquqida sudda jinoyat ishlarini oshkora muhokamasini ta‘minlash maqsadida yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan, axborot olish huquqi ta‘minlangan, sudlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorat samarali ravishda tashkil qilingan degan xulosaga keldik. Ammo, yopiq tartibda kechadigan sud muhokamalarining tartibi va ro‘yxati tugal emasligini unutmazlik lozim. Xususan, AQSH jinoyat protsessual huquqida ishni yopiq ko‘rish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lganda, ishni yopiq ravishda ko‘rmasdan cheklangan holda, muqobil variantlarni inobatga olib, aralash tizim yo‘lga qo‘yilganligiga guvoh bo‘ldik.

Jinoyati ishini sudda oshkora tartibda ko‘rishning ham odil sudlovning mustaqilligi faoliyati putur yetkazayotgan jihatlari ham yo‘q emas. Xususan, Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan jinoyat ishi bo‘yicha sud hujjatlari jamoatchilik talab qilgan yo‘sinda qabul qilinayotganligi hech kimga sir emas. Bunda Sudlar mustaqilligining amaliy ravishda to‘liq ifoda etilmayotganligini isbotidir.

Ommaviy axborot vositalari orqali jinoyat ishlari keng jamoatchilikka taqdim etilgan hollarda sudlanuvchilarning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqlari buzilib, keyingi hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi holatlari kuzatilmoqda. Xususan, xorij tajribasi asosida sudlanuvchining shaxsiga doir ma‘lumotlarni tarqatishni cheklash, uni audio-videotasvirga olishni ta‘qiqlash to‘g‘risida normativ hujjat qabul qilish ehtiyoji tug‘ilgan.

Jinoyat ishlarini yopiq sud majlisida ko‘rish nazarda tutilgan hollarni kengaytirish, davlat sirlaridan tashqari, tijorat hamda shaxsga doir sirlar bilan bog‘liq ishlarda, xususan sud xodimlari, prokuror, tergovchilarning ham xavfsizligini ta‘minlash zarurati paydo bo‘lganda vazozolarni joriy etish zarur.

Ishni yopiq sud majlisida ko‘rib chiqishda odil sudlovning qonuniylik va adolat tamoyillarining buzilish holatlari kuzatilmoqda. Xususan, joriy yilning birinchi chorakida xorazmda 15-17 yoshlardagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining sobiq amaldorlar tomonidan jinsiy zo‘ravonlikka uchragani va ularga sud hukmi 1 yil 6 oy muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangani hech kimga sir emas. Voyaga yetmagan shaxsning erkiga zid ravishda jinsiy zo‘ravonlik qilish uchun shunchaki bir yarim yil muddatga soat 22:00 dan 06:00 ga qadar yashash joyidan chiqmaslikni nazarda tutuvchi javobgarlik aybga mutanosib bo‘lgan jazo chorasi emas. Ishni yopiq sud tartibida ko‘rishda cheklangan tartibda shaxsga doir ma‘lumotni oshkor qilmasdan

¹ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казакстан. Статья 29. 04.07.2014. (https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovno-protsessualnyj_kodeks/29.htm)

muhokama qilish maqsadga muvofiq. Fikrimiz dalili sifatida Toshkentning Yangihayot tumanida 12 yoshli qizchani vahshiylarcha o'ldirgan xavfli retsivist jinoyatchi umrbod qamoq jazosiga hukm qilinganiga Prezident administratsiyasi shu'ba mudiri Saida Mirziyoyeva tomonidan "Ha, bu jazo qizaloqning ota-onasi tortayotgan azoblarni yumshatmaydi, yo'qotishlar o'rnini qoplay olmaydi. Ammo bu – jamoatchilik nazorati ostida qabul qilingan adolatli sud qaroridir. Hech qanday zo'ravonlik jazosiz qolmasligi kerak. Qonunlar nafaqat jazolash, balki bunday dahshatli jinoyatlarning oldini olish uchun ham ishlashi kerak", degan xulosasini keltirmoqchimiz¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 20.12.2022-yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.(elektron manba: <https://president.uz/oz/lists/view/5774>)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 30.06.2020-yildagi "Odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishga ba'g'ishlangan nutqi". elektron manba: (<https://president.uz/oz/lists/view/3684>)
3. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To'laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. –61-b
4. Oliy sud plenumining "Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi 21.04.2020-yilda 04-son qarori.
5. Trial procedure criminal courts. Article. (<https://www.britannica.com/topic/procedural-law/Trial-procedure>)
6. Right to a public trial. Article. (<https://www.nolo.com/legal-encyclopedia/criminal-trial-publicity.html>)
7. The right to a public trial in a criminal law case. Article. (<https://www.justia.com/criminal/procedure/right-to-a-public-trial/>)
8. Criminal trial publicity. article (From <https://www.nolo.com/legal-encyclopedia/criminal-trial-publicity.html>)
9. United States criminal procedure. article. (https://en.wikipedia.org/wiki/United_States_criminal_procedure)
10. Publicity in criminal cases. Article.(<https://law.jrank.org/pages/1894/Publicity-in-Criminal-Cases.html>)

¹Elektron manba: <https://kun.uz/uz/news/2023/05/26/hech-qanday-zoravonlik-jazosiz-qolmasligi-kerak-saida-mirziyoyeva>

11. Conclusion of publicity in criminal cases
(<https://law.jrank.org/pages/1892/Publicity-in-Criminal-Cases-Conclusion.html>)
12. Conclusion of publicity in criminal cases
(<https://law.jrank.org/pages/1892/Publicity-in-Criminal-Cases-Conclusion.html>)
13. University of Pennsylvania law review. Problems posed by publicity to crime and criminal proceedings. Pennsylvania :.2007
14. УПК. РФ. статья 241. главность.
https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/1c70c320a6fcfca2fbade f95fc3294b632f4 69c0/
15. Гласность в уголовном процессе.
<https://www.kartalyraion.ru/about/info/prokuror/10008/#:~:text=Гласность%20судебного%20разбирательства%20-%20конституционный,освещения%20хода%20и%20результатов%20процесса>
16. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казакстан. Статья 29. 04.07.2014. (https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovno-protsessualnyj_kodeks/29.htm)
17. Saida Mirziyoyeva. Hech qanday zo‘ravonlik jazosiz qolmasligi kerak. maqola
<https://kun.uz/uz/news/2023/05/26/hech-qanday-zoravonlik-jazosiz-qolmasligi-kerak-saida-mirziyoyeva>